

## BOSHLANG'ICH TA'LIM DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY METODLAR

**Rahmonova Saodat Abdug'aniyevna**

Jizzax viloyati Zomin tumani XTBga qarashli

7 - sonli umumta'lim maktabning boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7731016>

**Annotatsiya.** Ta'lim jarayonida o'quvchilar ham o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirishni faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Mazkur maqolada Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim darslari samaradorligini oshirishda o'qituvchi zamonaviy o'qitish metodikasini egallab, chuqur o'zlashtirib olmog'i lozimligi haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim jarayoni, zamonaviy yondashuv, pedagogik jarayon, sifat samaradorligi, o'qitish metodlari, "Aqlli hujum" metodi.

## СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УРОКОВ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

**Аннотация.** В процессе обучения учащиеся также служат для активизации усвоения знаний учащихся, развития их личностных качеств за счет повышения активности учителя. Применение интерактивных методов способствует повышению эффективности урока. В данной статье представлена подробная информация о том, как учитель должен овладеть и глубоко осваивать современные методики обучения, повышая эффективность учебных занятий для учащихся начальных классов.

**Ключевые слова:** образовательный процесс, современный подход, педагогический процесс, качественная эффективность, методы обучения, метод "мозгового штурма".

## MODERN METHODS IN IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF ELEMENTARY EDUCATION CLASSES

**Abstract.** In the educational process, students also serve to activate the assimilation of students' knowledge, to develop their personal qualities, by increasing the activity between the teacher. The use of interactive techniques will help increase the effectiveness of the lesson. This article provides detailed information about the fact that in improving the effectiveness of educational classes for Primary School students, the teacher should master the modern teaching methodology and master it in depth.

**Keywords:** educational process, modern approach, pedagogical process, quality efficiency, teaching methods, method of "intelligent attack".

## KIRISH

Yangi O'zbekistonning ta'lim sohasida o'tkazilayotgan tub islohotlarning mazmuni bugungi kunda ta'lim jarayonini loyihalashga yangicha yondashuv bilan boyib bormoqda.

Ta'limga zamonaviy yondashuv ta'lim jarayonini aniq vositalar yordamida samarali boshqarish va qo'yilgan o'quv maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish natijalarini kafolatlaydi. Boshlang'ich sinflarda ta'lim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv – vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijaga erishishni

ta'minlovchi pedagog jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizimdir.

### **ASOSIY QISM**

Ta'lim texnologiyalari pedagogik faoliyatning ma'lum sohasini qamrab oladi. Didaktik jarayon bosqichlarini muayyan ketma-ketlikda qurish o'quvchilarning bilim faoliyatini mavzu bo'yicha belgilangan maqsadlarga mos holda tanlangan o'qitish metodlari yordamida tashkil etish demakdir. Boshlang'ich sinflarda talim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv - o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra ma'lum pedagogik nazariyaga asoslangan u yoki bu tasnifga tegishli bo'ladi. Ularning samaradorligi to'g'risida fikr yuritilganda o'qitish jarayonini izga soladigan va uni maqsadli yo'naltira oladigan, o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatini ta'minlash barcha ta'lim muassasalarining oldiga qo'yilayotgan maqsadga nechog'lik erishilayotganini ko'zda tutish kerak.

Yoxud o'qitish metodlari bevosita ta'lim amaliyoti bilan aloqador kontseptsiyasidir. "Boshlang'ich sinflarda talim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv dastlab pedagog ongida faoliyatning umumlashgan loyihasi tarzida mavjud bo'ladi. Bu loyiha amaliyotga o'qituvchi va o'quvchi faoliyatlarining o'zaro tutashuvi tekisligida, o'qitish va o'qishning aniq harakatlar, amallar yoki usullar majmuasi sifatida joriy etiladi. Metodning boshqa namoyon bo'lish shakllari yo'q, sababi umumiy holda o'qitish metodi o'zida faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi".

Boshlang'ich sinflarda ta'lim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv faol va sust guruhlarga ajratish hollari mavjud. Agar har bir metod belgilangan u yoki bu maqsadni yechishda o'z o'rnida ishlatilsa, shubhasiz, faoldir.

Ta'lim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv ham darsda o'quvchilar faoliyatining yuqori darajasini ta'minlash asosida oldindan belgilangan maqsadga erishishga qaratiladi. Shu boisdan, bu faslda hali pedagogik jarayon uchun notanish bo'lgan chet el didaktikasiga oid metodlar haqida fikr yuritiladi.

Dars jarayonida aqliy hujumdan maqsadli foydalanish ijodiy, nostandart tafakkurlashni rivojlantirish garovi hisoblanadi. "Aqliy hujumni" uyushtirish bir muncha sodda bo'lib, undan ta'lim mazmunini o'zgartirish jarayonida foydalanish bilan birgalikda ishlab chiqarish muammolarining yechishni topishda ham juda qo'l keladi. Dastlab guruh yig'iladi va ular oldiga muammo qo'yiladi. Bu muammo yechimi to'g'risida barcha ishtirokchilar o'z fikrlarini bildiradilar. Bu bosqichda hech kimning o'zga kishi g'oyalari hujum qilish yoki baholashga haqqi yo'q.

Demak, "Aqliy hujum" yo'li bilan qisqa vaqtda o'nlab g'oyalarni yuzaga chiqish imkoniyatlari mavjud bo'ladi. Aslini olganda g'oyalar sonini qo'lga kiritish asosiy maqsad emas, ular muammo yechimini oqilona ishlab chiqish uchun asos bo'ladilar. Bu metod shartlaridan biri hech qanday tashqi ta'sirsiz qatnashuvchilarning har biri faol ishtirokchi bo'lish kerak. Bildirilgan g'oyalarning besh yoki oltitasigina asosiy hisoblanib muammo yechimini oqilona topishga salohiyatli imkoniyatlar yaratadi.

Shunday qilib, "Aqliy hujum" qoidalarini quyidagicha belgilash mumkin: olg'a surilgan g'oyalar baholanmaydi va tanqid ostiga olinmaydi; ish sifatiga emas, soniga qaratiladi, g'oyalar qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi; istalgan g'oyalarni mumkin qadar kengaytirish va rivojlantirishga harakat qilinadi; muammo yechimidan uzoq g'oyalar ham qo'llab-quvvatlanadi;

barcha g'oyalar yoki ularning asosiy mag'zi (farazlari) qayd etish yo'li bilan yozib olinadi; "hujum"ni o'tkazish vaqti aniqlanadi va unga rioya qilinishi shart; beriladigan savollarga qisqacha (asoslanmagan) javoblar berish ko'zda tutilishi kerak.

Boshlang'ich sinflarda "Ona tili va O'qish savodxonligi" darslarida matnlar berilgan bo'lib, shulardan biri "Alisher Navoiy" matnidir. Matn badiiy va ilmiy uslubda berilgan. Mashq shartida matnlarni taqqoslab, ularning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash topshirilgan. Mazkur matnni "Aqliy hujum" metodi yordamida o'rganish ko'zlagan maqsadga erishish imkoniyatini yaratadi. Bu metod asosida matn bilan bir necha bosqichda olib boriladi.

1-bosqich. O'quvchilarni mavzuni tushunishga tayyorlash. O'tgan mashg'ulotlarda berilgan nutq usullariga oid ma'lumotlar esga olinadi va takrorlanadi, har bir nutq uslubining o'ziga xos xususiyatlari yodga olinadi. Chunki matnlarni taqqoslash uchun o'quvchilarda nutq uslublariga oid ma'lumotlar yetarli bo'lishi kerak. Nutq uslublariga oid bilimlar yodga olingandan so'ng har ikki matn o'quvchilar tomonidan mustaqil o'qib chiqiladi. O'quvchilar matn mazmunini tushunishga harakat qiladilar.

2-bosqich. Berilgan matnlarning o'xshash tomonlarini aniqlash. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarga quyidagi savolni beradi? Har ikki matn qaysi jihatdan birbiriga o'xshaydi? O'quvchilar mazkur savolga shunday javob beradilar:

- har ikki matn ham Alisher Navoiy haqida;
- mantning mazmuni bir xil;
- har ikki matndan ham Navoiy ijodi haqida fikr bildirilgan;
- har ikkala matnda ham shoirning ustozlari nomlari keltirilgan;
- Navoiyning turkiy tilda ijod qilganligi aytilgan;
- Navoiyning jahonga tanilgan shoir ekanligi aytilgan
- Forsiy shoirlarning Navoiy ijodiga munosabati ifodalangan

O'qituvchi o'quvchilarning Navoiy ijodiga umumlashtiradi va o'z munosabatini bildiradi.

3- bosqich. Matnlarning farqli tomonlarini aniqlash. O'qituvchi quyidagi savolni o'rtaga tashlaydi.

Berilgan matnlar bir-biridan qaysi jihatlariga ko'ra farq qiladi? O'quvchilar berilgan savolga javob topishga turlicha fikrlar bildiradilar, baxs- munozaralar kirishadi.

Shu asosda quyidagicha javob beradilar.

Birinchi matn epigraf bilan boshlangan ikkinchi matnda esa epigraf yo'q ;

Birinchi matnda Navoiyning asarlarining nomi berilgan, ikkinchi matnda esa ularning nomi berilmagan;

Birinchi matnda Navoiy ijodiga forsiy shoirlarning munosabati umumiy ravishda berilgan, ikkinchi matnda esa Jomiyning fikri aynan keltirilgan;

Birinchi matnda Navoiyning ijodi haqida umumiy fikrlar aytilgan, ikkinchi matnda esa Navoiyning ijodi butun jahonga mashhurligi aytilgan bo'lsa, ikkinchi matnda shoir asarlarining Yevropa Osiyo davlatlari tillariga tarjima qilinganligi ta'kidlangan.

Birinchi matnda his-tuyg'u kuchli ifodalangan, ikkinchi matnda esa aniq fikrlarga asoslangan.

"Alisher Navoiy" matni shu metod yordamida o'rganilsa, o'quvchilar matn mazmunini yaxshiroq anglaydilar ularning mazmuniga chuqurroq kirib boradilar matnlarni qiyoslash orqali ularning mohiyatini teran idrok etadilar va interfaol metodlar o'quvchilarni fikrlashga, darslarda faol qatnashishga, darslarda faol ishtirokchi bo'lishiga o'rgatadi.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, didaktik o'yinlar, interfaol uslublar, ta'limiy mashqlar, yangi-yangi metodlar barchasi o'quvchini yangi mavzuni puxta o'zlashtirishga va ta'lim sifatini oshishiga xizmat qiladi. Biz pedagog muallimlarning ham maqsadimiz shudir. O'quvchilar qanchalik kreativ fikrlab, mustaqil bajara olsalar biz maqsadga erishgan bolamiz. O'quv jarayonida motivatsiyadan foydalanish va rag'batlar berish ham, albatta, innovatsion yondashuvda juda qo'l keladi. Har bir o'qituvchi darslarga innovatsion yondashib, yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib darslar o'tsa bu oz natijasini beradi. Yangi O'zbekistonimiz kelajagi bilimli, mustaqil fikrlaydigan tadbirkor va tashabbuskor kadrlarga bog'liq. Ular esa maktablarda tarbiyalanadi.

## **REFERENCES**

1. Tolipov O. Umumiy pedagogika Toshkent: 2007.
2. Yo'ldashev O. Pedagogika Toshkent: 2008.
3. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar", T.G'afforova, Toshkent-2016.
4. Turdiyev N.SH., Asadov YU.M , Akbarova S.N , Temirov D.SH. Umumiy o'rta talim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. //O'quv uslubiy qo'llanma(I-qisim). Toshkent, 2015.